Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолитдинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	962
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....	966
<i>Ro'ziqulova Zarina Yusupovna</i>	
Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida	969
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rnini	974
<i>Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi</i>	
Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	978
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi</i>	
Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatlari	983
<i>Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	987
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi</i>	
15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati.....	991
<i>G. X. Ravshanov, A. X. Norov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..	997
<i>Abduraximova Shahnoza Alikulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	1000
<i>Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova</i>	
O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....	1003
<i>B. Y. Hamrayev</i>	
Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati	1008
<i>Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich</i>	
Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'rnini.....	1011
<i>Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni	1015
<i>Dostonbek Bobojonov G'ofurovich</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1019
<i>Umarova Mohichehra Ikromjon qizi</i>	
Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	1023
<i>To'laganova Mohinur Abduhakim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....	1026
<i>Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....	1030
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	1035
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayeva</i>	
Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....	1038
<i>Raximova Intizor Rustamovna</i>	
Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari	1041
<i>Sabirova Gullola G'ayratovna</i>	
Феномен русскоязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....	1045
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	



BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI



Dostonbek Bobojonov G'ofurovich

Yashnobod tumani XTB ga qarashli

152-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

ORCID: 0009-0000-9170-8183

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari, mazmuni va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tarix fanining mazmuniy va aksiologik xususiyatlaridan kelib chiqib, refleksiv tafakkur bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini anglash, tarixiy voqelikni tanqidiy talqin qilish va pedagogik faoliyatini ongli rejalashtirishning muhim sharti sifatida asoslanadi. Maqolada refleksiv tafakkurning tarkibiy jihatlarini, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlar hamda ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: refleksiv tafakkur, tarix o'qituvchisi, kasbiy o'zini anglash, tarixiy tafakkur, pedagogik refleksiya.

Abstract: This article examines the theoretical foundations, content, and pedagogical significance of developing reflective thinking in future history teachers. Considering the substantive and axiological characteristics of historical education, reflective thinking is substantiated as a key condition for professional self-awareness, critical interpretation of historical reality, and conscious planning of pedagogical activity. The article highlights the structural components of reflective thinking and methodological approaches to its development in the educational process.

Key words: reflective thinking, history teacher, professional self-awareness, historical thinking, pedagogical reflection.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы, содержание и педагогическое значение развития рефлексивного мышления у будущих учителей истории. Исходя из содержательных и аксиологических особенностей исторического образования, рефлексивное мышление рассматривается как важнейшее условие профессионального самосознания, критического осмысления исторической реальности и осознанного проектирования педагогической деятельности. Раскрываются структурные компоненты рефлексивного мышления и методологические подходы к его формированию в образовательном процессе.

Ключевые слова: рефлексивное мышление, учитель истории, профессиональное самосознание, историческое мышление, педагогическая рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida tarix fanini o'qitish mazmuni nafaqat faktologik bilimlarni yetkazish, balki tarixiy voqelikni tanqidiy anglash, uni ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin qilish hamda pedagogik faoliyatda ongli qarorlar qabul qilishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida refleksiv tafakkurni rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Axborot oqimining ko'payishi, tarixiy ma'lumotlarning turli va ba'zan qarama-qarshi talqinlarda taqdim etilishi sharoitida tarix o'qituvchisi o'z faoliyatini faqat tayyor sxemalar asosida emas, balki refleksiv tahlil orqali tashkil etishi zarur. Refleksiv tafakkur o'qituvchiga o'z pedagogik pozitsiyasini anglash, tarixiy mazmunni tanlash va baholashda mas'uliyatli yondashish imkonini beradi. Shu sababli mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Refleksiya va refleksiv tafakkur muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon fundamental ilmiy masala sifatida o'rganib kelinmoqda. Ushbu tushuncha shaxsning o'z faoliyati, fikrlashi va tajribasini anglash hamda qayta tahlil qilishga yo'naltirilgan ongli jarayon sifatida talqin etiladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda refleksiya tafakkurning yuqori bosqichi bo'lib, shaxsning o'z bilimlari va harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantiruvchi mexanizm sifatida izohlanadi.



L.S. Vygotskiy tafakkur rivojini ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida asoslab, refleksiyaning inson ongining yuqori darajadagi funksiyasi sifatida talqin qiladi ^[1]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, refleksiya shaxsning mavjud bilim va tajribasini qayta qurish, ularni yangi ijtimoiy va madaniy kontekstda anglash imkonini beradi. Vygotskiy yondashuvda refleksiya individual psixik jarayon sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy tajribani ichkilashtirish jarayonida shakllanuvchi murakkab ongli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat refleksiv tafakkurning pedagogik jarayonda, ayniqsa, gumanitar fanlarni o'qitishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Pedagogik professionalizm muammosi doirasida A.K. Markova refleksivlikni o'qituvchi kasbiy ongining markaziy komponentlaridan biri sifatida ajratib ko'rsatadi ^[3]. U refleksiv tafakkurni pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy qarorlarini asoslash va pedagogik pozitsiyasini anglash qobiliyati bilan bevosita bog'laydi. Markova fikricha, refleksivlik rivojlanmagan sharoitda pedagogik faoliyat ko'pincha reproduktiv xarakter kasb etadi va kasbiy o'sish imkoniyatlari cheklanadi. Shu jihatdan refleksiv tafakkur bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini anglash jarayonini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

N.V. Kuzmina pedagog shaxsining professional rivojini o'rganar ekan, refleksiv pozitsiyaning barqarorligi pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlaydi ^[2]. Uning tadqiqotlarida refleksiya pedagogning kasbiy faoliyatida nafaqat o'zini baholash, balki ta'lim jarayonining natijalarini tahlil qilish va ularni takomillashtirishga yo'naltirilgan ongli faoliyat sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv refleksiv tafakkurni kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rishga imkon beradi. Tarix ta'limi doirasida refleksiv tafakkur muammosi asosan tarixiy tafakkur va narrativ anglash konsepsiyalari orqali yoritilgan.

G'arb didaktikasida J. Rösen tarixiy bilimni shaxsning identiteti, ijtimoiy xotirasi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilib, refleksiv yondashuvsiz tarixiy ongning shakllanishi mumkin emasligini asoslaydi ^[8]. Uning konsepsiyasida tarixiy tafakkur voqealarni oddiy xronologik ketma-ketlikda o'zlashtirish emas, balki ularni mazmunan talqin qilish, baholash va shaxsiy ma'no bilan bog'lash jarayoni sifatida tushuniladi.

P. Seixas va T. Morton tarixni o'qitishda refleksiv tahlilni tarixiy tafakkurning asosiy komponenti sifatida belgilab, tarixiy bilimlarni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy manbalarni baholash va tarixiy voqealarga nisbatan pozitsiya bildirish jarayonlarida refleksiyaning muhim rolini ko'rsatadilar ^[10]. Ularning yondashuvda refleksiv tafakkur tarix fanining tarbiyaviy salohiyatini ro'yobga chiqarish, fuqarolik ongini va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, refleksiv tafakkur masalasi ko'proq umumiy pedagogik yoki tarixiy tafakkur kontekstida yoritilgan bo'lib, uni bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bilan tizimli ravishda bog'lash yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mavjud tadqiqotlarda refleksiv tafakkur ko'pincha alohida ko'nikma yoki psixologik sifat sifatida talqin qilinadi, holbuki, u bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy identifikatsiyasi va pedagogik o'zini anglash jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida kompleks yondashuvni talab etadi. Aynan shu holat mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini belgilab, refleksiv tafakkurni tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi doirasida maxsus o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yo'nalishga ega bo'lib, bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmunini zamonaviy pedagogik va tarixiy-ta'limiy yondashuvlar asosida ilmiy asoslashga qaratilgan. Tadqiqotda refleksiv tafakkur individual psixologik jarayon sifatida emas, balki kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadigan hamda pedagogik faoliyatning mazmuniy sifatini belgilovchi pedagogik-aksiologik konstruktsiya sifatida talqin qilindi. Shu sababli metodologik yondashuvni tanlashda refleksiya, kasbiy qaror qabul qilish va tarixiy mazmunni anglash jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar markaziy o'ringa qo'yildi.

Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda ilmiy-pedagogik va didaktik adabiyotlarni nazariy kontent-tahlil qilish metodi qo'llanildi. Ushbu metod refleksiya tushunchasining ta'lim jarayonidagi talqinlari hamda uning kasbiy rivojlanish bilan bog'liq jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Xususan, refleksiya ta'lim jarayonida tajribani anglash va qayta qurish mexanizmi sifatida izohlangan yondashuvlar tahlil qilindi ^[5], ^[6].

Kontent-tahlil natijasida refleksiv tafakkurning kasbiy faoliyatni ongli rejalashtirish va baholash bilan uzviy bog'liq jihatlarini aniqlashtirildi, bu esa tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlashga imkon berdi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Ushbu metod refleksiya va refleksiv tafakkurga oid turli pedagogik yondashuvlarni o'zaro solishtirish orqali ularning tarix ta'limi kontekstidagi imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirildi. Jumladan, refleksiyaning kasbiy faoliyatni tahlil qilish va qayta qurish vositasi sifatida talqin qiluvchi konsepsiyalar bilan uni ta'limiy tajribani anglash jarayoni sifatida tushuntiruvchi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi ^[9], ^[4]. Bu yondashuv refleksiv tafakkurni tarix fanini o'qitishda mazmuniy tanlov va pedagogik qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq holda talqin etish imkonini berdi.

Tadqiqotda, shuningdek, konseptual modellash metodini qo'llanildi. Ushbu metod bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy faoliyatida refleksiv tafakkurning o'rnini kompetensiyaviy yondashuv asosida ifodalashga xizmat qildi. Modellash jarayonida refleksiv tafakkurning tarixiy mazmunni talqin qilish, tarbiyaviy maqsadlarni



belgilash hamda pedagogik faoliyat natijalarini baholashdagi funksiyalari aniqlashtirildi. Bu metod refleksiv tafakkurni alohida ko'nikma sifatida emas, balki kasbiy faoliyatni ongli boshqarish va professional o'sishni ta'minlovchi mexanizm sifatida ko'rishga imkon berdi^[7].

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tajribaga asoslangan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va refleksiv yondashuv integratsiyasiga tayangan yondashuv qabul qilindi. Tajribaga asoslangan yondashuv refleksiv tafakkurni bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy tajribasi bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi.

Kompetensiyaviy yondashuv refleksiv tafakkurni kasbiy tayyorgarlik natijasi sifatida baholashga asos bo'ldi.

Refleksiv yondashuv esa pedagogik faoliyatni anglash, tahlil qilish va qayta qurish jarayonlarini metodologik jihatdan asoslab berdi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmui refleksiv tafakkurni bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi markaziy omil sifatida talqin qilish imkonini berdi hamda tadqiqotning mantiqiy izchilligi va nazariy yaxlitligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy-tahliliy tadqiqotlar bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurning ko'p darajali va ierarxik tuzilishga ega ekanini ko'rsatdi. Mazkur darajalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular tarixiy tafakkur, shaxsiy-aksiologik pozitsiya va pedagogik o'zini anglash jarayonlarini bir butun tizim sifatida qamrab oladi. Birinchi daraja tarixiy bilimlarning tanqidiy-refleksiv tahlili bilan bog'liq. Ushbu darajada bo'lajak tarix o'qituvchisi tarixiy manbalar, narrativlar va talqinlarni solishtirish, ularning kelib chiqishi, ishonchiligi hamda maqsadga yo'naltirilganligini baholash qobiliyatini namoyon etadi. Bu daraja tarixiy tafakkurning asosiy komponenti bo'lib, u faktlarni oddiy qabul qilishdan ko'ra ularni ongli ravishda tahlil qilish va mazmunan talqin etishga yo'naltirilgan^{[8], [10]}. Mazkur bosqichda refleksiya tarixiy bilimning chuqurlashuvi va didaktik mazmunning ongli tanlanishini ta'minlaydi. Ikkinchi daraja refleksiv tafakkurning shaxsiy va ijtimoiy-aksiologik o'lchami bilan bog'liq. Bu bosqichda bo'lajak o'qituvchi tarixiy voqealarni baholashda axloqiy mezonlar, fuqarolik mas'uliyati hamda ijtimoiy xotira bilan bog'liq pozitsiyani shakllantiradi. Tarixiy mazmun bu yerda shunchaki bilimlar tizimi emas, balki shaxsning qadriyatli yo'nalganligini belgilovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, refleksiya aynan shu darajada shaxsning ijtimoiy tajribani anglash va uni ichkilashtirish mexanizmi sifatida faoliyat ko'rsatadi^[1]. Natijada bo'lajak tarix o'qituvchisida tarix fanining tarbiyaviy va fuqarolik ahamiyatini anglash barqarorlashadi. Uchinchi daraja refleksiv tafakkurning pedagogik-professional darajasi bo'lib, u bevosita bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq. Mazkur darajada talaba tarixiy mazmunni qanday o'qitish, qaysi didaktik yondashuvlarni tanlash, ularning tarbiyaviy va ijtimoiy oqibatlarini oldindan prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonda refleksiya pedagogik qaror qabul qilishning ichki mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, o'qituvchining kasbiy pozitsiyasini shakllantiradi^{[3], [2]}. Aynan uchinchi daraja refleksiv tafakkurni bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy identifikatsiyasini ta'minlovchi markaziy mexanizmga aylantiradi. Ushbu darajada refleksiya o'qituvchining "Men – pedagog" konsepsiyasini shakllantirib, tarix fanini o'qitishda mazmun, metod va tarbiyaviy maqsadlar o'rtaidagi uyg'unlikni ta'minlaydi.

Umumiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, refleksiv tafakkuri rivojlangan bo'lajak tarix o'qituvchilari tarix fanini faqat bilimlar majmui sifatida emas, balki shaxsni tarbiyalovchi, ijtimoiy ong va tarixiy xotirani shakllantiruvchi pedagogik vosita sifatida idrok etadilar. Bu esa tarix ta'limining mazmuniy chuqurligini oshirish bilan birga, uning tarbiyaviy va ijtimoiy samaradorligini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Natijada refleksiv tafakkur bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida integrativ va strategik ahamiyat kasb etuvchi sifat sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan nazariy-tahliliy tadqiqot natijalari refleksiv tafakkurning bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida markaziy, integrativ va tizim hosil qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi. Refleksiv tafakkur tarixiy bilimlarni chuqur anglash, ularni tanqidiy va mas'uliyatli talqin qilish, shuningdek, pedagogik faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish va baholash imkonini beruvchi muhim intellektual-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Aynan refleksiya orqali bo'lajak tarix o'qituvchisi tarix fanini faktlar majmui sifatida emas, balki shaxsni tarbiyalovchi, ijtimoiy ong va tarixiy xotirani shakllantiruvchi ta'limiy hodisa sifatida idrok eta boshlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, refleksiv tafakkur tarixiy tafakkur, aksiologik pozitsiya va pedagogik o'zini anglash jarayonlarini yagona mantiqiy tizimda birlashtiradi. Bu holat bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda refleksiyaning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Refleksiv tafakkur rivojlangan sharoitda o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini tashqi talablar yoki tayyor metodik andozalar asosida emas, balki tarix fanining mazmuniy, tarbiyaviy va ijtimoiy mas'uliyatini anglagan holda tashkil etadi. Shu jihatdan refleksiv

tafakkur tarix ta'limining mazmuniy chuqurligi va tarbiyaviy samaradorligini oshirishning strategik omili sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni asoslashga imkon beradiki, refleksiv tafakkur bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida alohida komponent emas, balki uning kasbiy "Men" konsepsiyasini shakllantiruvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi. Aynan shu mexanizm orqali tarix fanini o'qitish jarayonida bilim, qadriyat va tarbiyaviy maqsadlar o'rtasida mazmunli uyg'unlik qaror topadi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- tarix fanini o'qitish jarayonida refleksiv tahlilga yo'naltirilgan topshiriqlar (manbalarni solishtirish, tarixiy talqinlarni baholash, muammoli savollar asosida munozara tashkil etish) ulushini tizimli ravishda oshirish;
- pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarining refleksiya asosida o'z faoliyatini tahlil qilishi va o'zini baholashini ta'minlovchi metodik mexanizmlarni joriy etish;
- bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus metodik modullarni ishlab chiqish va ularni tarix ta'limi mazmuniga integratsiya qilish.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, refleksiv tafakkurni rivojlantirish bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish, tarix ta'limining tarbiyaviy salohiyatini ro'yobga chiqarish va jamiyatda tarixiy ong hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский, Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с. – URL: <https://www.twirpx.com/file/168844/>
2. Кузьмина, Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 2002. – 318 с. – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=19614184>
3. Маркова, А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 312 с. – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25981294>
4. Boud, D.; Keogh, R.; Walker, D. (eds.). Reflection: Turning Experience into Learning. – London: Routledge, 1985. – 170 p.
5. Dewey, J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – Boston: D.C. Heath and Company, 1933. – 301 p. – URL: <https://archive.org/details/howwethinkrestat00dewe>
6. Moon, J.A. Reflection in Learning and Professional Development: Theory and Practice. – London: Kogan Page, 1999. – 229 p.
7. Moon, J.A. A Handbook of Reflective and Experiential Learning: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004. – 260 p. – URL: <https://www.routledge.com/A-Handbook-of-Reflective-and-Experiential-Learning/Moon/p/book/9780415335164>
8. Rösen, J. History: Narration, Interpretation, Orientation. – New York: Berghahn Books, 2005. – 224 p. – URL: <https://www.berghahnbooks.com/title/RusenHistory>
9. Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p. – URL: <https://www.basicbooks.com/titles/donald-a-schon/the-reflective-practitioner/9780465068784/>
10. Seixas, P., Morton, T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – Toronto: Nelson Education, 2013. – 192 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.